

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

TURSIMURATOV SAPAR YESHMURATOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA SUG‘ORISHDAN KEYIN G‘O‘ZA
QATOR ORALARIGA ISHLOV BERUVCHI KULTIVATORNING O‘TOQ
QILUVCHI-YUMSHATUVCHI PANJASINI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01-Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора

философии (PhD) по техническим наукам

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Tursimuratov Sapar Yeshmuratovich

Qoraqalpog'iston sharoitida sug'orishdan keyin g'o'za qator oralariga
ishlov beruvchi kultivatorning o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini
ishlab chiqish va parametrlarini asoslash 3

Турсимуратов Сапар Ешмуратович

Разработка и обоснование параметров полольно-рыхлительной лапы
культиватора для обработки междурядий хлопчатника после полива в
условиях Каракалпакстана..... 19

Tursimuratov Sapar Yeshmuratovich

Development and justification of the parameters of the weeding-loosening
paw of a cultivator for processing the row spacing of cotton after watering
in the conditions of Karakalpakstan..... 35

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 38

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

TURSIMURATOV SAPAR YESHMURATOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA SUG‘ORISHDAN KEYIN G‘O‘ZA
QATOR ORALARIGA ISHLOV BERUVCHI KULTIVATORNING O‘TOQ
QILUVCHI-YUMSHATUVCHI PANJASINI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01-Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/T3504 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.qxmiti.uz va «ZiyoNet» Axborot talim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Auyezov Ongarbay Pirlashovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich
texnika fanlari doktori, professor

Utegenova Gulzar Auesbayevna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «7» noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkun (187 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «23» oktyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «23» oktyabr dagi 45 raqamli reestr bayonnomasi).



A.To'xtafo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

B.P.Artikbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.PhD., k.i.x.

R.R.Xudaykuliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.n., k.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash mashinalarini ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. "Dunyo miqyosida bugungi kunda 900 mln. gektar maydonda turli qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan 32-34 mln. gektar maydonda g'o'za yetishtirilishini"¹ hisobga olsak, g'o'za qator oralariga ishlov berish uchun ish sifati yuqori, mehnat sarfi va metallhajmdorligi kam hamda energiya-resurstejamkor kultivatorlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu borada respublikamiz va xorijiy davlatlarda ma'lum ijobiy yutuqlarga erishilgan bo'lib, kultivatorlarning ko'p funksiyali universal ish organlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qoraqalpog'iston O'zbekiston Respublikasining paxta yetishtiradigan eng shimoliy zonasi hisoblanadi. Qoraqalpog'istonning iqlim sharoiti keskin kontinental bo'lib, havoning harorati qish kunlari 25-30°C sovuq, yoz kunlari 45-50°C issiq², yerlarning sho'rlanish darajasi yuqoriligi bois paxta hosilini oshirish va tannarxini kamaytirish uchun o'ziga xos bo'lgan yuqori sifatli energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan hozirda bunday texnika va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qishloq xo'jaligi ekinlari qator oralariga ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan kultivatorlar uchun universal ish organini ishlab chiqish va ishchi qismlarining texnologik jarayonini asoslash, ularni tuproq va begona o'tlar bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan mavjud kultivatorlarning bir necha turdagi va miqdordagi ish organlari vazifasini bajaradigan, tez va oson rostlanadigan, kam energiya-metallhajmdor, o'simliklarning butun vegetatsiya davrida qator oralariga sifatli ishlov berishni ta'minlaydigan yagona universal ish organlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo'jalik ekinlarini, shu jumladan paxtani ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "... qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, ... ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, aholi tomonidan tomorqalardan

¹ Sulaymanov B.A., Abdualimov SH.X., Tillaev R.SH., Xudayqulov J.B., Anorboev A. Paxta yetishtirish qo'llanmasi. – Toshkent: Tasvir. 2021 –B. 9-10.

² Аминов С. Технологические основы механизации хлопководства зоны при аралья – Нукус, Билим, 1998. – 140 с.

samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish”³, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “... qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy yetish, agroklastlar va fermer xo‘jaliklarini ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlash hisobiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o‘tish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4410-son Qarorlari, 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘o‘za va boshqa ekin qator oralariga ishlov beruvchi texnika vositalari hamda ularning turli ishchi organlarini yaratish va qo‘llash, ish ko‘rsatkichlarini o‘rganish va parametrlari hamda qator oralariga joylashtirish sxemalarini asoslash bo‘yicha xorijda A.S.Kobets, A.M.Pugach, M.M.Xaritonov (Ukraina), K.R.Paarlberg, H.M.Hanna, D.C.Erbach, (AQSh), M.A.Hemeda, Z.E.Ismail (Misr) va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Respublikamizda esa A.Xadjiyev, V.Sergienko, R.I.Boymetov, M.M.Muradov, F.M.Mamatov, A.To‘xtaqo‘ziyev, I.T.Ergashev, A.Qoraxonov, A.K.Egamberdiyev, S.Temirov va boshqalar, Qoraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida esa S.N.Shamshetov, O.P.Auezov, S.Aminov, D.T.Utemuratova, B.U.Nurabaev va boshqalar shug‘ullanishgan.

Bu tadqiqotlar natijasida yaratilgan ekinlar qator oralariga ishlov beradigan kultivatorlar va ularning ish organlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilmoqda. Ammo Qoraqalpog‘iston sharoitini hisobga olgan holda vegetatsion sug‘orishdan keyin

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

tuproqni uvalash va begona o‘tlarni yo‘qotishda egat profiliga mos kultivatorlarning o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtachilik kultivatori uchun o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash yo‘li bilan vegetatsion sug‘orishlardan keyin agrotexnik talablar darajasida ekinlar qator orasidagi begona o‘tlarni yo‘qotish va tuproqni uvalash sifatini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

vegetatsion sug‘orishlardan keyin g‘o‘za qator orasi tuprog‘ini uvalash va begona o‘tlarni yo‘qotish sifatini oshirish uchun kultivatorning o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish hamda ularga doir ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

vegetatsion sug‘orishlardan oldin va keyin g‘o‘za qator oralaridagi tuproqning fizik-mexanik xossalarini o‘rganish;

o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning konstruksiyasini va uning tajriba namunasini ishlab chiqish;

o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning parametrlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

asoslangan parametrlarga ega o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivatorning xo‘jalik sinovlari va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholash.

Tadqiqotning ob’ekti. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivator va u bajaradigan texnologik jarayon.

Tadqiqotning predmeti. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning begona o‘tlar va tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonlarini ifodalovchi analitik bog‘liqliklar hamda ish ko‘rsatkichlarini uning parametrlari va agregatning harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanikaning asosiy qonunlari, dehqonchilik mexanikasi, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda (O‘z DSt 3412:2019, O‘zDSt 3193:2017) belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vegetatsion sug‘orishlardan keyingi egat profilini hisobga olgan holda g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan;

o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja uchlik pichog‘ining o‘tkirlanish burchagi uning faskalariga tuproq yopishmasligi hamda tortishga qarshiligi kam bo‘lishi shartidan keltirib chiqarilgan analitik ifodalar asosida aniqlangan;

o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tortishga qarshiligi tuproqning fizik-

mexanik xossalari, uchlik pichoqlari va yarim sferik panjasining parametrlarini hisobga olgan holda keltirib chiqarilgan analitik ifodalar olingan;

belgilangan agregat harakat tezliklarida o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi, uning uchlik-pichoqlar soni va o'tkirlanish burchagining maqbul parametrlari tuproqni uvalash va begona o'tlarni yo'qotish darajalari hamda tortishga qarshiligini ifodalovchi regressiya tenglamalarini birgalikda echish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtachilik kultivatorining maqbul parametrlarga ega ish sifati yuqori o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasi ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

ishlab chiqilgan ishchi organ g'o'za qator oralariga ishlov berishda qo'llanilganda ish sifati yaxshilanishiga va resurslar sarfining kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarning samarali usullar va o'lchov vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, vegetatsion sug'orishdan keyin g'o'za qator oralariga ishlov beradigan ishchi organining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika va oliy matematikaning asosiy qonun va qoidalariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, ishlab chiqilgan ishchi organ bilan jihozlangan kultivator dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati vegetatsion sug'orishlardan keyin g'o'za qator oralaridagi begona o'tlarning ildizini qirqish va tuproqni uvalash uchun mo'ljallangan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlovchi parametrlari asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash ishchi organlarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivator qo'llanilganda mehnat va yonilg'i sarfi kamayishi, ish unumi va sifati oshishiga erishganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston sharoitida sug'orishdan keyin g'o'za qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ishlab chiqilgan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivator Chimboy, Kegayli va Nukus tumanlaridagi fermer xo'jaliklari dalalarida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 22 yanvardagi 01/026-170-sonli ma'lumotnomasi). Natijada vegetatsion sug'orishlardan keyin g'o'za qator oralariga ishlov berishda begona o'tlarning yo'qotilish darajasi 94,94 %, o'lchami 0-25 mm bo'lgan tuproq fraksiyalarining miqdori 77,08 % ni tashkil etgan.

ishlab chiqilgan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivatorning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriqlar va chizmalar)

«BMKB-Agromash» AJ ga taqdim etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 22 yanvardagi 01/026-170-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja bilan jihozlangan kultivatorni ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola nashr etilgan hamda 1 ta Intellektual mulk markazining ixtiroga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha malumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida Qoraqalpog‘iston sharoitida g‘o‘za yetishtirishning tuproq-iqlim sharoiti va texnologik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan, bu yerda iqlim keskin kontinental bo‘lib, yoz kunlari issiq va qish kunlari sovuq bo‘ladi. Qoraqalpog‘istonning tuproq sharoitlari tarkibi va sho‘rlanishi jihatidan xilma-xildir. Qoraqalpog‘iston tumanlari bo‘yicha tuproqlarning sho‘rlanish darajasi, shuningdek, g‘o‘za qator oralariga ishlov berishga qo‘yiladigan agrotexnik talablar turlicha bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston paxta maydonlarida uchraydigan begona o‘tlar bo‘yicha ma‘lumotlar, ularni yo‘q qilish va tuproqni uvalashda qo‘llanilayotgan paxtachilik kultivatorlarining ishchi organlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Begona o‘tlar zararkunandalarning ko‘payishiga va o‘simlik kasalliklarining tarqalishiga sharoit yaratadi. Begona o‘tlarni yo‘q qilishda tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlari yeyiladi. Shu sababli hosildorlik 20 % ga qadar kamayib, g‘o‘zaning tannarxi ortib ketadi. Begona o‘tlarni yo‘q qilishda qo‘l mehnatining sarfi paxta ishlab chiqarish harajatlarining 40 foiziga to‘g‘ri keladi.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash vegetatsion sug‘orishlardan keyin qator orasidagi begona o‘tlarni yo‘q qilishni to‘liq amalga oshirib, tuproqning uvalanish sifatini yaxshilaydi.

Dissertatsiyaning «**G‘o‘za qator orasidagi tuproqning fizik-mexanik**


hususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi bobida sug'orishdan keyingi egatning ko'ndalang profili, namlikning, zichlikning, qattqlikning o'zgarish jarayonlari o'rganilgan.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki (1-rasm), egat profili yarim sferik shaklga ega bo'lganligini hisobga olib, ushbu holat ishchi organi ishlab chiqishda hisobga olinadi.

Tuproqning namligi va qattqligi 3 zonada o'lchandi (2-rasm): egatning pushtasida (zona I-g'o'zaning joylashish zonasi, qiyalikda (zona II-tepadan 10 cm oraliqda) va o'rtada (zona III-sug'orilgan egatning pastki asosining o'rtacha chizig'ida). Tuproqning qattqligi VISXOM qattqlik o'lchagichlari bilan aniqlandi



1-rasm. Sug'orishdan oldin va keyin egat profilining ko'ndalang kesimi



2-rasm. Tuproqning namligini, zichligini va qattqligini aniqlash sxemasi

Qoraqalpog'iston sharoitida qator orasiga ishlov berishdan oldin birinchi vegetatsion sug'orishdan keyin 0-15 cm qatlamda namlik 13,5-19,8 %, zichlik 1,04-1,36 g/cm³, qattqlik 0,66-1,66 MPa ni tashkil etishi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval

Egat tuprog'ining namligi, zichligi va qattqligi

Gorizontlar, cm	Namlik, %			Zichlik, g/cm ³			Qattqlik, MPa		
	push-tada	egat devori-da	egat o'rtasi-da	push-tada	egat devori-da	egat o'rtasi-da	push-tada	egat devori-da	egat o'rtasi-da
0-5	13,5	15,3	17,8	1,04	1,15	1,23	0,66	1,03	1,35
5-10	16,1	17,5	18,6	1,15	1,22	1,32	0,97	1,27	1,52
10-15	17,6	18,7	19,8	1,22	1,28	1,36	1,25	1,45	1,66
o'rt	15,7	17,1	18,7	1,14	1,21	1,30	0,96	1,25	1,51

Dissertatsiyaning «**Kultivatorning o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish va nazariy jihatdan uning parametrlarini asoslash**» deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjani ishlab chiqish va uning parametrlarini nazariy jihatdan asoslash natijalari keltirilgan. Ishlab chiqilgan o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja ustun 1, kronshteyn 2, boltlar 3 va 4, ikki tomonlama o'tkirlangan yarim sferik panjadan tashkil topgan bo'lib, panja 5 ustun 1 ga qo'zg'almas etib kronshteyn 2 yordamida o'rnatilgan.


Kronshteyn 2 da sferik teshikcha 7 bo'lib, uning yordamida panjaning tuproqqa kirish burchagi o'zgartiriladi. Panjaning old yuziga tuproqni kesuvchi qaldirg'och qanoti tarzli uchlik-pichoqlar 6 o'rnatilgan, ular panjaning sferik yuziga urinma chizig'iga perpendikulyar joylashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Ishlab chiqilgan kultivatorning o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasining sxemasi (№ IAP 06603)

Ishlab chiqilgan ishchi organ bilan begona o'tlarning ildizini qirqish jarayonini nazariy tadqiq etish uchun tig'ning old profili AC ni to'g'ri chiziq deb qaraymiz (4-rasm).


O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar burchak $\gamma > (\pi / 2 - \varphi_c)$ bo'lganda ildiz tig' bo'ylab sirpanmaydi, agar $\gamma < (\pi / 2 - \varphi_c)$ bo'lganda ildizlarni kesish jarayoni sirpanish bilan amalga oshiriladi.



4-rasm. Ish jarayonida yarim sferik panjaning o'ng tomoni va begona o'tlarning ildizi orasidagi o'zaro ta'sirlashish sxemasi

Tuproqlarni kesadigan uchlik-pichoqlar ikki tarfli tig' shaklida ishlangan, u harakat jarayonida egatlarning sferik yuzalarini parallel chiziqlar bilan kesib o'tadi, shu bois tuproqlarning qotgan yuzalarini buzib, orqa qismiga o'rnatilgan kultivatorning chuqur yumshatuvchi panjasiga qulay ish sharoitini yaratadi.

Uchlik-pichoqlarning harakat qarshiliklarini kamaytirish uchun ularning optimal o'tkirlanish burchagi aniqlandi (5-rasm). Uchlik-pichoq gorizontal tekislikda harakat qiladi deb hisoblaymiz. Unga tuproq yopishmasligi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim.



5-rasm. Uchlik-pichoqning o'tkirlanish burchagini aniqlashga doir sxema

$$2\gamma_T = \frac{\pi}{2} - \varphi_1 \quad (1)$$

yoki
$$\gamma_T = \frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_1}{2}, \quad (2)$$

bunda φ_1 – tuproqning tashqi ishqalanish burchagi, °.

$\varphi_1=30^\circ$ qabul qilib (1) va (2) ifodalar bo'yicha $2\gamma_T=60^\circ$ va $\gamma_T=30^\circ$ bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

Tadqiqotlarda ishchi organning tortishga qarshiligi aniqlandi. Eksperimental ishchi organning umumiy qarshiligi (R_0) tuproqning uchlik-pichoq va yarim sferik panjaga qarshiliklaridan iborat va u quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi:

$$R_0 = nK_T T t_T b_T + [\tau_H] \frac{b \cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + H_2 \operatorname{tg} \left(\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2} \right)}{\cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2)} H_2 \left[\sin \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \times \right.$$

$$\begin{aligned}
& \times \operatorname{tg} \varphi_1 \cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \alpha \left. \right] + \left\{ b(H_2 \rho_2 + H_1 \rho_1) L g \operatorname{tg}(\alpha + \varphi_1) + 2[(b + H_2 \operatorname{ctg} \psi_{\delta 2}) \times \right. \\
& \times H_2 \rho_2 + (2H_2 \operatorname{ctg} \psi_{\delta 2} + b + H_1 \operatorname{ctg} \psi_{\delta 1}) H_1 \rho_1] V^2 \frac{\sin \alpha (\alpha + \varphi_1)}{\cos^2 \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \varphi_1} \left. \right\} \times \left(1 + \frac{W}{100} \right) + \\
& + 2 \left[K T t_{n\delta} + b_{II} h \rho g \left(1 + \frac{W}{100} \right) \times (\sin 2\alpha + \cos^2 \alpha \operatorname{tg} \varphi) \right] \times \left(R_{\delta} + \sqrt{R_{\delta}^2 - 0,25 B^2} \right) + \\
& + \left(2R_{\delta} \arcsin \frac{0,5B}{R_{\delta}} + h \operatorname{tg} \psi_{\delta} \right) h \left\{ \tau_H \left[\sin \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + \operatorname{tg} \varphi_1 \cos \frac{1}{2}(\alpha - \varphi_1 - \varphi_2) \cos \alpha \right] \times \right. \\
& \left. \times \cos^2 \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + h \rho V_a^2 \frac{\sin \alpha \sin(\alpha + \varphi_1)}{\cos \varphi_1} \times \left(1 + \frac{W}{100} \right) \right\}, \quad (3)
\end{aligned}$$

bunda $-K_T$ – uchlik-pichoqning shaklini hisobga oladigan koeffitsient;

T – tuproqning qattiqligi, Pa;

t_T, b_T – uchlik-pichoqning qalindigi va uzunligi, m;

$[\tau_H]$ – tuproqning siljishga solishtirma qarshiligi, m;

b – yarim sferik panja eni, m;

α – uchlik-pichoqning tuproqqa kirish burchagi, °;

φ_2 – tuproqning ichki ishqalanish burchagi, °;

H_1, H_2 – yaxlit tuproq va yumshatilgan qatlamlarining qalindigi, m;

ρ_1, ρ_2 – yaxlit tuproq va yumshatilgan qatlamlarining zichliklari, kg/m^3 ;

L – uchlik-pichoq ishchi yuzasining uzunligi, m;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2 ;

W – tuproqning namligi, %;

$\psi_{\delta 1}, \psi_{\delta 2}$ – tuproqning yirik qattiq qatlami va yumshatilgan qatlamlarining sinish burchagi, °.

Ushbu ifodaning tahlilidan ishchi organning tortishga qarshiligi uning parametrlariga ($t_T, b_T, n, b, \alpha, R_{\delta}, B, h_H, t_H$), tuproqning fizik-mexanik xususiyatlariga ($T, [\tau_u], \rho, \varphi_1, \varphi_2$) va agregatning harakat tezligiga bog‘liq ekanligi kelib chiqadi.

Quyidagi parametrlar bo‘yicha $K_T=1$; $T=2,4 \cdot 10^6$; $t_T=0,001$ m; $b_T=0,009$ m; $H=0,07$ m; $b=0,08$ m; $\alpha=28^\circ$; $r_b=0,20$ m; $B=0,320$ m; $t_H=0,005$ m; $\rho=1300$ kg/m^3 ; $g=9,8$ m/s^2 ; $\varphi_1=30^\circ$; $W=16$ %; $\varphi_2=40^\circ$; $2\gamma_T=60^\circ$ o‘tkazilgan hisoblashlar shuni ko‘rsatadiki agregatning 5,0-7,0 km/h harakat tezligida ishchi organning tortishga qarshiligi 635-680 N na tashkil qildi.


Dissertatsiyaning «**Eksperimental tadqiqotlarning dasturi, metodikasi va natijalari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida eksperimental tadqiqotlar dasturiga quyidagilar kiritildi:

kultivatorning o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasining parametrlarini sug‘orishdan keyin egatlardagi begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi va tuproqni maydalash sifatiga tasirini o‘rganish;

kultivatorning o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasi parametrlarining uning tortishga qarshiligiga tasirini o‘rganish;

kultivatorning eksperimental o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasining parametrlarini maqbullashtirish.


Begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi va tuproqni uvalash sifatini aniqlash uchun yarim sferik panjadagi uchlik-pichoqlarning sonini o‘zgartirib amalga oshirildi (6-rasm):



a, b, v, g – mos ravishda 2 ta, 3 ta, 4 ta va 5 ta uchlik-pichoqlar bilan jihozlangan o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjalar

6-rasm. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja uchlik-pichoqlari soni o‘zgartirilgan tajriba namunalari


Ishchi organlarga turli hil parametrlarga ega uchlik-pichoqlar joylashtirildi (7-rasm, a, b, v, g).



$l=0,09$ m-uchlik-pichoq uzunligi; $h_1=0,01$; $h_2=0,012$; $h_3=0,014$; $h_4=0,016$ m-uchlik-pichoqlarning balandligi

7-rasm. Eksperimental o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaga joylashtirilgan uchlik-pichoqlarning har-xil o‘tkirilanish burchaklari


Ishchi organning tortishga qarshiligini aniqlash uchun tenzometrik pasaytirgich yordamida tenzometrik sinov o‘tkazildi (8-rasm).



1-tenzometrik pasaytirgich;
2-parallelogramm mexanizm; 3-gryadil;
4-tayanch g‘ildirak; 5-ishchi organ
8-rasm. Tenzometrik gryadil sxemasi

Tenzometrik pasaytirgichni ishga sozlash tajriba o‘tkazishdan oldin va keyin maxsus stendda amalga oshirildi. Ushbu holatda pasaytirgichga 0 dan 2000 N ga qadar har 250 N intervalida kuch qo‘yilib va olinib nazorat qilib borildi va tarirovkalash koeffitsienti aniqlandi. Tarirovkadagi xatolik 1,6 % ni tashkil qildi.

Uchlik-pichoqlar sonining begona o‘tlarning yo‘qotilishi va tuproqning uvalanish darajasiga hamda ishchi organlarning tortishga qarshiligiga ta’siri.



1 – $V=5,0$ km/h; 2 – $V=7,0$ km/h

9-rasm. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja uchlik-pichoqlari soni (n)ning uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Tajribalarni o‘tkazishda o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning uchlik-pichoqlarining soni 1 interval bilan 2 dan 5 taga qadar o‘zgartirildi (9-rasm). Tajribalarni o‘tkazishda uchlik-pichoqning tuproqqa kirish burchagi 28° , uning o‘tkirilanish burchagi 60° va agregat harakati tezligi 5 va 7 km/h ga teng bo‘ldi.

Tajriba natijalaridan ko‘ringanidek o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning uchlik-pichoqlarining soni 2 dan 4 donaga qadar o‘zgartirilganda 5 va 7 km/h harakat tezliklarida tuproqning uvalanish darajasi 72,81 foizdan 76,48 foizgacha va 73,45 foizdan 77,85 foizgacha ortib borgan. Keyinchalik uchlik-pichoqlar soni 4 donadan 5 donaga qadar ortishi bilan esa mos ravishda tuproqning uvalanishi 76,48 dan 75,9 foizgacha va 77,85 foizdan 76,71 foizgacha kamaygan.

Buning asosiy sababi shundaki, uchlik-pichoqlar soni 2 va 3 dona bo‘lganida ular orasidagi masofa katta bo‘lganligi tufayli tuproqning uvalanishi agrotexnik talab darajasida bo‘lmagan, keyinchalik uchlik-pichoqlar soni 4 donaga ortganida tuproqning uvalanishi talab darajida bo‘lgan, so‘ngra 5 donaga ortganida esa ular orasidagi masofa kamayishi tufayli ularning oralariga tuproq bo‘laklari tiqilishi kuzatilgan, natijada tuproqning uvalanish darajasi kamaygan.

Begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi esa agregatning har ikkala harakat tezliklarida o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning uchlik-pichoqlarining soni 2 dan 4 donaga qadar o‘zgartirganda 88,68 foizdan 94,59 foizgacha va 87,74 foizdan 92,91 foizgacha ortib borgan. So‘ngra uchlik-pichoqlar soni 4 donadan 5 donaga qadar ortishi bilan begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi 94,59 dan 92,91 foizgacha va 92,91 foizdan 91,15 foizgacha kamaygan. Buni yuqorida ta’kidlangan sabablar bilan izohlash mumkin.

Agregatning 5,0 va 7,0 km/h harakat tezliklarida uchlik-pichoqlar soni 2 donadan 5 donagacha o‘zgarishi bilan pichoqlarning tortishga qarshiligi 557 N dan 595 N gacha va 565 N dan 611 N gacha oshgan.

Buni uchlik-pichoqlar soni hamda agregat tezligi oshishi bilan tuproq bo‘laklariga beriladigan zarba kuchi ortishi hamda uchlik-pichoqlar bilan surilayotgan tuproq hajmining ortishi bilan izohlash mumkin.


Demak, o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari bo‘yicha kam energiya sarflagan holda talab darajasida ishlov berish uchun uchlik-pichoqlarning soni 4 ta bo‘lishi lozim.

O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja uchlik-pichoqlari o'tkirlanish burchagining ish ko'rsatkichlariga ta'siri. Tajribalarni o'tkazishda yarim sferik britvaga o'rnatilgan uchlik-pichoqlarning o'tkirlanish burchagi 10° interval bilan 40° dan 70° ga qadar o'zgartirilib borildi. Tajribalarni o'tkazish uchun uchlik pichoqlarning soni 4 ta, ularning tuproqqa kirish burchagi 28° qabul qilib olindi va agregatning harakat tezliklari 5 va 7 km/h ni tashkil etdi. Tajribalarning natijalari 10-rasmda keltirilgan.

Tajriba natijalaridan ko'ringanidek o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaga joylashtirilgan uchlik-pichoqlarning o'tkirlanish burchagi 40° dan 60° ga qadar o'zgartirilganda tuproqning uvalanishi va uning tortishga qarshiligi ortgan, ya'ni, o'tkirlanish burchagi 40° dan 50° ga o'zgarganda tuproqning uvalanish darajasi ikkala tezliklarga bog'liq ravishda 74,5 foizdan 75,35 foizgacha va 75,7 foizdan 76,12 foizga qadar ortgan. Tortishga qarshiligi esa 584 N dan 580 N ga va 594 N dan 591 N ga kamaygan.

Uchlik pichoqlarning o'tkirlanish burchagi 60° dan 70° oralig'ida o'zgartirilganda tuproqning maydalanishi har ikkala tezliklarda 76,14 foizdan 75,3 foizgacha va 77,4 foizdan 76,01 foiz oralig'ida kamaygan. Tortishga qarshiligi esa 584 N dan 600 N gacha va 580 N dan 610 N gacha ortgan.

Demak, tajribalardan ko'ringanidek uchlik-pichoqlarning o'tkirlanish burchagi 60° bo'lganda tuproqning uvalanish sifati yuqori va tortishga qarshiligi kam bo'lgan.



1- $V=5,0$ km/h; 2- $V=7,0$ km/h


10-rasm. O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja uchlik-pichoqlarining o'tkirlanish burchagi ($2\gamma_T$) ning uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri

O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagini uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri. O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagini aniqlashda tajribalar 3° interval bilan 25° dan 34° oralig'ida o'tkazildi. Bunda uchlik-pichoqlar soni 4 ta, ularning o'tkirlanish burchagi 60° va agregat harakat tezliklari 5 va 7 km/h qabul qilindi.

O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa maqbul kirish burchagini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida tuproqning uvalanishi va begona o'tlarni yo'qotilish darajalari hamda ishchi organning tortishga qarshiligi olindi. O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa maqbul kirish burchagi 25° dan 28° oralig'ida o'zgartirilganda tuproqning uvalanish darajasi tezlikka bog'liq ravishda 76,31 foizdan 78,64 foizgacha va 77,12 foizdan 79,34 foizgacha oshdi, begona o'tlarning yo'qotilish darajasi 87,92 foizdan 92,58 foizgacha va 89,6 foizdan 93,76 foizga qadar ortgan. Tortishga qarshiligi esa 567 N dan 577 N

va 576 N dan 591 N oraliq'ida o'zgardi (11-rasm). O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi 31° dan 34° oraliq'ida o'zgartirilganda tuproqning uvalanish darajasi 76,48 foizdan 73,17 foizgacha, 77,85 foizdan 74,51 foizgacha kamaygan, begona o'tlarning yo'qotilish darajasi esa 86,64 foizdan 83,21 foizga va 88,91 foizdan 86,65 foizga kamaydi. Tortishga qarshilik esa 591 N dan 622 N gacha va 606 N dan 639 N gacha ortdi.

Buning asosiy sababi, tuproqqa 5-6 cm ishlov berilganda egat profillarini maydalash darajasi pasaygan. Natijada u yerdagi tuproq uvalanmagan, unib chiqqan begona o'tlar qirqilmasdan qolgan va tortishga qarshiligi ham ortgan. O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi 28° bo'lganda esa egat profilini to'liq qamrab olib, tuproqning uvalanishi hamda begona o'tlarning yo'qotilishi agrotexnika talablari darajasida bo'lgan.




1 – $V=5,0$ km/h; 2 – $V=7,0$ km/h

11-rasm. O'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi (α) ni uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri

Agregat harakat tezligining ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan natijalar 12-rasmda keltirilgan. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, agregatning harakat tezligi 4,0 km/h dan 7,0 km/h gacha ortganda tuproqning uvalanish darajasi 74,12 foizdan 79,53 foizgacha, begona o'tlarning yo'qotilish darajasi 86,63 foizdan 93,84 foizgacha ortgan va tortishga qarshilik 527 N dan 605 N gacha ortib borgan.

Demak, o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari bo'yicha tuproqqa talab darajasida ishlov berish uchun agregatning harakat tezligi 7,0 km/h bo'lishi lozim.



12-rasm. Agregat harakat tezligi (V)ning ish ko'rsatkichlariga ta'siri

Ishchi organ parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlashda matematik rejalashtirish metodlaridan foydalanildi. Bunda o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi (X_1), uchlik-pichoqlari soni (X_2), uchlik-pichoqlarning

o'tkirlanish burchagi (X_3), agregatning harakat tezligi (X_4)ning tuproqning uvalanish darajasi va begona o'tlarni yo'qotilish darajasi hamda tortishga qarshilikka ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi.

Tajribalar natijalariga ishlov berilib quyidagi adekvat regressiya tenglamalari olindi:

- tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha, %:

$$Y_1 = 77,2 + 0,481X_1 + 0,761X_2 + 0,785X_3 + 0,483X_4 - 1,841X_1^2 - 0,404X_1X_2 - 0,436X_1X_3 + 0,693X_1X_4 - 1,807X_2^2 - 0,909X_2X_4 - 1,296X_3^2 + 0,629X_4^2; \quad (4)$$

- begona o'tlarni yo'qotilish darajasi bo'yicha, %:

$$Y_2 = 93,404 - 1,519X_1 + 1,769X_2 + 1,358X_4 - 0,873X_1^2 - 0,600X_1X_4 - 1,382X_2^2 + 0,385X_2X_4 - 1,317X_4^2; \quad (5)$$

- ishchi organining tortishga qarshiligi bo'yicha, kN:

$$Y_3 = 571,763 + 14,073X_1 + 9,383X_2 + 38,517X_4 + 5,487X_1^2 - 2,504X_1X_2 + 2,504X_1X_4 - 6,413X_2^2 + 2,946X_2X_3 - 5,963X_2X_4 + 8,221X_3^2 - 2,929X_3X_4 + 9,921X_4^2. \quad (6)$$

(4)-(6) regressiya tenglamalari Y_1 mezon 75 foizdan, Y_2 mezon esa 90 foizdan yuqori, Y_3 mezon esa minimal qiymatga esa bo'lishi shartlaridan birgalikda yechilib, agregatning 6,0-7,0 km/h ish tezligida o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi $25^\circ 58' - 29^\circ 49'$, uchlik-pichoqlarning soni -3,89-4,57 dona, uchlik-pichoqlarning o'tkirlanish burchagi $54^\circ 04' - 60^\circ 52'$ bo'lishi kerakligi aniqlandi. Shu sababli ularni maqbullashtiramiz. Yani, agregatning ish tezligi 5,0-7,0 km/h bo'lganda uchlik-pichoqlar soni 4 dona, o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi $25^\circ 58' - 29^\circ 49'$, uchlik-pichoqlarning o'tkirlanish burchagi $54^\circ, 04' - 60^\circ 52'$ oralig'ida bo'lishi lozim.

Omillarning ushbu qiymatlarida tuproqning maydalanish darajasi 75-77,08 %, begona o'tlarni yo'qotilish darajasi 92,06-94,94 %, ishchi organlarning tortishga qarshiligi 413,84-515,58 N ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Ishlab chiqilgan ishchi organ bilan jihozlangan kultivatorning xo'jalik sinovlari natijalari va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari**» deb nomlangan beshinchi bobida sug'orishdan keyin g'o'za qator oralaridagi begona o'tlarni yo'qotish va tuproqni uvalash uchun mo'ljallangan ishchi organ tajriba namunasining qisqacha tavsifi berilgan.

Sug'orishdan keyin g'o'za maydonlari egatlariga ishlov berishda o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panjani qo'llash ish sifatini oshiradi, xo'jalik sinovlarida ishchi organing sifat ko'rsatkichlari agrotexnik talablarga javob berdi: begona o'tlarni yo'qotilish darajasi 94,94 % ni, tuproqning uvalanish darajasi, ya'ni o'lchami 0-25 mm bo'lgan tuproq fraksiyalarining miqdori 77,08 % ni tashkil etdi. Tavsiya etilgan parametrlarga ega bo'lgan eksperimental o'toq qiluvchi-yumshatuvchi panja qo'llanganda umumiy xarajatlar hozirgi ishchi organlarni qo'llanganga qaraganda 19 % ga kamaydi. Bu bir agregatni qo'llashdan yiliga 20 674 620,72 so'm miqdorida iqtisodiy foyda olish imkonini beradi.

XULOSA

“Qoraqalpog‘iston sharoitida sug‘orishdan keyin g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi kultivatorning o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan kultivatorlarning ishlash imkoniyatlari va ularning ishchi organlarining konstruksiyalari shu vaqtga qadar o‘zgarishsiz qolmoqda. Oldingi tadqiqotlarda mavjud ishchi organlar g‘o‘zani sug‘orishdan keyin ishlatilganda ularning ish ko‘rsatkichlari agrotexnik talablarga javob bermasligi ko‘rsatilgan. Shu sabab g‘o‘za qator oralariga sug‘orishdan keyin egatlarning ko‘ndalang kesim profiliga mos keladigan va bir xil chuqurlikda ishlov beradigan yangi ishchi organlarni yaratish muhim masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

2. Qoraqalpog‘iston sharoitida vegetatsiya davrida sug‘orishdan keyin egatlarga ishlov berishdan oldin 0-15 cm gorizontda tuproqning namligi 13,5-19,8 %, zichligi 1,04-1,36 g/cm³ va qattiligi 0,66-1,66 MPa bo‘ladi, zichlik ko‘pincha maqbul miqdordan yuqoriroq bo‘ladi.

3. Birinchi sug‘orishdan keyin, qator orasidagi egatlarning ko‘ndalang kesimi yarim sferik shaklga ega bo‘lishi aniqlandi. G‘o‘zalarning qator orasini sug‘orishdan keyin o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjalar bilan va chuqur ishlovchi ishchi organlar bilan birgalikda ishlov berganda mavjud ishchi organ bilan solishtirganda tuproqning uvalanish darajasi 1,5 marotaba yaxshilandi, begona o‘tlarni yo‘qotilish darajasi 94,94 % ni tashkil qildi.

4. Ishchi organ ish jarayonida tuproq va begona o‘tlar bilan tiqilib qolmasligi va tortishga qarshilikni kamaytirish uchun o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning uchlik-pichoqlari soni 4 ta, o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning tuproqqa kirish burchagi 28°, uchlik pichoqlarning o‘tkirinish burchagi 60° bo‘lishi lozim.

5. Ishchi organning tortishga qarshiligi o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning va uchlik-pichoqlarning parametrlariga, agregatning harakat tezligiga, tuproqning fizik-mexanik xossalariga bog‘liq bo‘ladi. Agregatning harakat tezligi 5-7 km/h bo‘lganda tortishga qarshilik 635-680 N ni tashkil etadi.

6. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjaning ishlash kengligi 320 mm, yarim sferik panjaning egrilik radiusi 200 mm dan iborat.

7. O‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panjanining xo‘jalik sinovlaridagi sifat ko‘rsatkichlari agrotexnik talablarga javob beradi. Ishlab chiqilgan eksperimental o‘toq qiluvchi-yumshatuvchi panja qo‘llanilganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar kamayib, bir agregatga 20 674 620,72 so‘m miqdorida yillik foyda olinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО
ХОЗЯЙСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

ТУРСЫМУРАТОВ САПАР ЕШМУРАТОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
ПОЛОЛЬНО-РЫХЛИТЕЛЬНОЙ ЛАПЫ КУЛЬТИВАТОРА
ДЛЯ ОБРАБОТКИ МЕЖДУРЯДЬЯ ХЛОПЧАТНИКА ПОСЛЕ
ПОЛИВА В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире разработка и применение энерго-ресурсосберегающих и высокопроизводительных машин для ухода за сельскохозяйственными культурами занимает ведущие места. «В мире на площади 900 млн га выращиваются сельскохозяйственные культуры, в том числе на 32-34 млн га выращивается хлопчатник»¹, в связи с чем одной из важнейших задач считается разработка культиваторов с высоким качеством работы, низкой трудоемкостью и малой металлоемкостью, а также энергосберегающих культиваторов при междурядной обработке хлопчатника. В этой связи в нашей республике и зарубежных странах достигнуты определенные положительные успехи, при чем особое внимание уделяется разработке многофункциональных универсальных рабочих органов культиваторов. Каракалпакстан считается самой северной хлопкосеющей зоной республики Узбекистан. Климат Каракалпакстана резко континентальный, температура зимой $-25-30^{\circ}\text{C}$, летом $+45-50^{\circ}\text{C}$ ², а также высокая степень засоленности почв обуславливает в качестве важной задачи разработку специфических, высококачественных, энерго-ресурсосберегающих технологии и технических средств в целях повышения урожайности хлопчатника и снижения его себестоимости. В связи с этим особое внимание уделяется созданию такой техники и технологий и совершенствованию существующих.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ ресурсосберегающих технологий для обработки междурядий сельскохозяйственных культур и технических средств для их осуществления. В этом направлении разработка универсального рабочего органа для культиваторов и обоснование его технологического процесса работы и параметров, обеспечение ресурсосбережения в процессе их взаимодействия с почвой и сорняками имеет особое значение. С этой точки зрения необходимо разработать универсальные рабочие органы, выполняющие функции нескольких типов и количества рабочих органов существующих культиваторов, быстро и легко переналаживаемые, мало энерго-и материалоемкие, обеспечивающие качественную обработку междурядий весь вегетационный период растений.

